

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO’QON DAVLAT UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”
Qo’qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
29-avgust 2025-yil**

**TEXNOLOGIYA TA’LIMI METODIKASI
FANINING O’QUV DASTURI**

(kunduzgi ta’lim shakli uchun)

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60111300 – Texnologik ta’lim

Qo’qon – 2025

Fan/modul kodi TTM 2205		O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	Kreditlar 4		
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Kurs ishi	Jami yuklama (soat)
	Texnologiya ta'limi metodikasi	60 (30/16/14)		30	30	120
2.	I. Fanning mazmuni Fanning maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan «Texnologiya» fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida “Texnologiya ta'limi metodikasi” fani asosiy fanlardan biridir. Mazkur fan dasturi umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitilishi, texnologik jarayonlar haqida tushuncha berish, talabalarning pedagogika, psixologiya, umumkasbiy hamda ixtisoslik fanlaridan olgan bilim va ko'nikmalarini texnologiya darslarini olib borishda tatbiq etish, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari texnologiya darslarida umummehnat, kasb tanlashga yo'llash ko'nikmalarini shakllantirishning tashkiliy shakllari, metodlari, shuningdek, ularga oid rejalashtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtirish masalalarini qamraydi. “Texnologiya ta'limi metodikasi” fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 2-kursda o'qitish nazarda tutilgan. Mazkur fan umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fani o'qituvchisini tayyorlashda asosiy fanlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Fanning vazifalari: Fanni o'qitishda talabalarga umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fani metodologiyasini, texnologiya darslarida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirish, texnologiya fanining o'quv meyoriy hujjatlarini tahlil qilish va qayta ishlash; texnologiya darslarini samarali o'qitish metodlaridan, dars shakllaridan foydalana olish; pedagogik va axborot texnologiyalar asosida darslarni tashkil qilish va o'tkazish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini pedagogik-psixologik bilimlarni maktab o'quvchilarida umummehnat, kasb tanlashga yo'llash va umumkasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida tatbiq etish; pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish; texnologiya fani o'quv ustaxonalarini talab darajasida jihozlash va uni nazorat; maktablarda texnologiya darslarini o'qitishni samarali tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini shakllantirish vazifalarini bajaradi. Fanning asosiy manbalari: Ma'lumki har bir fan o'z manbalariga ega bo'lib, ushbu manbalar asosida rivojlanganidek, mamlakatning oliy vakillik organi hamda vakolatli davlat hokimiyat idoralari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ўз навбатида мазкур Технология таълими методикаси fanining ham manbalari bo'lib hisoblanadi. Технология таълими методикаси fanining manbalari deganda ўқитиш жараёнида амал қилинадиган дидактик таъомиллар, ўқитиш методлари, шакллари, воситалари кабилар билан bog'liq munosabatlarni tartibga solishda xizmat qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar tushuniladi Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Технология таълими методикаси fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Forobiy nomidagi Qozoq Milliy universitetida o'qitiladigan “Dizayn asoslari”, “Dizayndagi milliy naqshlar”, “Педагогика назарияси” fanlarining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings-2024 bo'yicha 163-o'rinni egallagan bo'lib, dizayn sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlarni inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Forobiy nomidagi Qozoq Milliy universitetida					

yuqorida keltirilgan o'quv kurslarida xalq hunarmandchiligining nazariy asoslari bilan bir qatorda, milliy merosni muhofaza qilish va ulardan foydalanishga ham keng ahamiyat qaratilgan. Булардан Технология таълими методикаси фанида ҳам фойдаланиш мумкин.

Xalqaro standartlarga muvofiqlik dastur xalqaro huquqiy me'yorlar, ayniqsa, funktsional va boshqa umuminsoniy prinsiplar asosida boyitilgan.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish orqali talabalar insonning faoliyat yo'nalishlarini zamonaviy ma'lumotlar asosida boshqarishni, dalillarga tayangan holda amaliy xulosalar chiqarishni o'rganadilar.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1. Texnologiya ta'limi metodikasi fani, uning maqsadi va vazifasi. Maktab o'quv rejasida texnologiya fanining qo'yilishi, uning tarixiy taraqqiyoti. Texnologik ta'limni tashkil qilishning didaktik tizimlari.
2. Texnologiya fanining iqtisodlik fanlar blok modulidagi fanlar va umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim bilan integratsiyalash. Mehnat jarayonining tahlili va didaktik tushunchalar.
3. Texnologiya fanida qo'llaniladigan didaktik tamoyillari va o'qitish shakllari.
4. Texnologiya fanida qo'llaniladigan o'qitish metodlari. Texnologiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanish.
5. 5-9-sinflarda texnologiya va dizayn yo'nalishi bo'yicha DTS talablari va o'quv dasturlari mazmuni. Texnologiya va dizayn yo'nalishi darslarini tashkil etish.
6. 5-9-sinflarda servis xizmati yo'nalishi bo'yicha DTS talablari va o'quv dasturlari mazmuni. Servis xizmati yo'nalishi darslarini tashkil etish.
7. 5-9-sinflarda texnologiya fanidan nazariy tushunchalar berish va amaliy darslarni tashkil etish. Texnologiya fani o'quv jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasi.
8. Texnologiya darslarida o'quvchilarga tarbiya elementlarini singdirish.
9. Texnologiya fani darslari jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni baholash, baholashni turlari va mezonlari. Xalqaro baholash tizimlari.
10. Texnologiya fanidan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish.
11. Texnologiya ta'limi metodikasi faniga oid metodik ishlarni amalga oshirish.
12. Texnologiya ta'limi metodikasi fanidan kurs va bitiruv malakaviy ishlar mavzularini tanlash, tayyorlashga qo'yiladigan talablar.
13. Texnologiya ta'limi metodikasi fanidan kurs va bitiruv malakaviy ishlar mavzularini tanlash, tayyorlashga qo'yiladigan talablar.
14. Texnologiya fanidan pedagogik amaliyot o'tkazish. Pedagogik amaliyotga qo'yiladigan metodik talablar.
15. Texnologiya fani metodikasidan ilmiy tadqiqot ishlarni o'tkazish.

III. Seminar mashg'ulotlari:

1. Texnologiya fanini o'qitish metodikasi fani, uning maqsadi va vazifasi. Maktab o'quv rejasida texnologiya fanining qo'yilishi, uning tarixiy taraqqiyoti bilan tanishish.
2. Texnologiya fanidan pedagogik amaliyot o'tkazish. Pedagogik amaliyotga qo'yiladigan metodik talablarni o'rganish.
3. Kurs va bitiruv malakaviy ishlari mavzularini tanlash, tayyorlashga qo'yiladigan talablarni o'rganish.
4. Texnologiya fanida qo'llaniladigan o'qitish metodlari. Texnologiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishni o'rganish.
5. 5-9-sinflarda texnologiya va dizayn yo'nalishi bo'yicha DTS talablari va o'quv dasturlari mazmuni. Texnologiya va dizayn yo'nalishi darslarini tashkil etishni o'rganish.
6. 5-9-sinflarda servis xizmati yo'nalishi bo'yicha DTS talablari va o'quv dasturlari mazmuni. Servis xizmati yo'nalishi darslarini tashkil etishni o'rganish.

7. 5-9-sinflarda texnologiya fanidan nazariy tushunchalar berish va amaliy darslarni tashkil etishni o'rganish.

IV. Amaliy mashg'ulotlar:

1. Texnologiya o'quv fani bo'yicha nashr etilgan adabiyotlar bilan tanishish.
2. Texnologik ta'lim metodikasi fani bo'yicha nashr etilgan adabiyotlar bilan tanishish.
3. Umumta'lim maktablarida texnologiya o'quv fani darslarini tashkil etilishi bilan tanishish.
4. O'quv ustaxonasi hamda o'quv xonalarini tashkil etish va jihozlash ishlarini o'rganish.
5. Texnologiya fanini o'qitishda fanlararo bog'lanishlardan foydalanishni o'rganish.
6. Texnologiya fanini o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan ayrim ITlari bilan tanishish.
7. Texnologiya va dizayn yo'nalishida xalq hunarmandchiligiga oid mavzularni o'qitish ishlarini o'rganish
8. Servis xizmati yo'nalishida xalq hunarmandchiligiga oid mavzularni o'qitish ishlarini o'rganish.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda magistrlar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy ishlarni bajarish orqali yanada rivojlantiradilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida magistrlar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali magistrlar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash tavsiya etiladi.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Umumta'lim maktablarida Texnologiya fanini o'qitishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar. Maktabda texnologiya fanini o'qitishning tarixiy taraqqiyoti va istiqboldagi rejalar.
2. Texnologiya fanida qo'llaniladigan didaktik tamoyillar, o'qitish shakllari va metodlariga tavsif.
3. Texnologiya fanida qo'llaniladigan o'qitish metodlari. Texnologiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanish yo'llari Texnologiya fani nazariyasining asosiy negizlari.
4. Texnologiya fani ta'limi va tarbiyasining uzviyligi.
5. Texnologiya fanini uzluksiz ravishda kasb tanlashga yo'naltirgan tarzda tashkil etish mazmuni.
6. Texnologiya fani o'quv jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasi.
7. Texnologiya darslarida o'quvchilarga tarbiya elementlarini singdirish yo'llari.
8. Texnologiya fani darslari jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni baholash, baholashni turlari va mezonlari. Xalqaro baholash tizimlari.
9. STEAM ta'limi dars rejasi va uning konspekti.
10. Fanlararo aloqadorlikni ta'minlangan holda tashkil etilgan texnologiya ta'limining rejalashtiruvchi hujjatlari.
11. Texnologik ta'limning uzviyligi tahlili va didaktik tushunchalar.
12. Uzviy ta'lim jarayonining tahlili.
13. Texnologik jarayonlarda tizimlilik.
14. Zamonaviy baholash tizimlari va mezonlari
15. Uzluksiz ta'lim tizimida hamkorlik.
16. Hamkorlik sharoitida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish
17. Texnologik ta'limni professional ta'lim va oliy ta'lim bilan integratsiyalash.
18. Texnologik ta'limda интерфаол методлардан фойдаланиш.
19. 19. Texnologik ta'limda компьютер дарсурларидан фойдаланиш.
20. Texnologik ta'limda fanlararo bog'lanishlardan foydalаниш.

	<i>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha magistrlar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</i>
3.	VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllantiriladigan kompetensiyalar) Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba: - texnologiya fanining umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilishi va fan o'qituvchisining faoliyati, o'quv ustaxonalarining moddiy-texnik ta'minoti to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; - mehnat ta'limining rivojlanishi va istiqbollari, texnologiya fanida didaktik tamoyillar, dars shakllari, metodlari, texnologiya fanida tuziladigan o'quv me'yoriy hujjatlar, davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish mezonlari va unga o'yiladigan talablarni, metodik ishlarni bilishi va ulardan foydalana olishi; - o'quvchilarning mehnat tayyorgarligi bo'yicha o'quv rejasi va dasturlar mazmunini; o'quv jarayonini tashkil etish va texnologiya faniga oid rejalashtiruvchi hujjatlarni ishlab chiqish, texnologiya fani darslarini olib borish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; - talaba amaliy malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi; texnologiya fani mashg'ulotlarini o'tkazish; o'quv jarayonini rejalashtirish; o'quvchilar bilimini baholay olish; mahalliy, tabiiy materiallardan foydalanish; darslarni tahlil qilish; darslarni pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil qilish va o'tkazish malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: ma'ruzalar; interfaol ta'lim usullari va keys-stadilar; seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotqilish; individual loyihalar; jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish topshirish hamda kurs ishini ximoya qilish.
6.	IX. Asosiy adabiyot: 1. Abdullayev S. va b. Texnologik ta'lim metodikasi: Darslik. Namangan, 2022. – 412 b. 2. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash: Darslik T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. – 449 b. 3. Karimov I. Mehnat ta'limi o'qitish texnologiyalari O'q.-usl. qo'll. T., TDP, 2013. – 228 b. 4. Karimov I. Texnologiya ta'limi metodikasi: O'quv qo'llanma. T.: Adabiyot uchqunlari, 2021. – 232 b. 5. Karimov I. Texnologiya ta'limi metodikasi: 7-sinfda texnologiya va dizayn yo'nalishi darslarini tashkil etish: O'quv qo'llanma. – Farg'ona, 2024. – 248. 6. Sattorova Z. va b. Texnologiya. 9-s. Darslik T.: O'zbekiston, 2019. – 160 b. 7. Tohirov O'. va b. Texnologiya. 5-s. Darslik T., 2024. – 240 b. 8. Tohirov O'. va b. Texnologiya. 8-s. Darslik T.: Ilm-ziyo, 2019. – 160 b. 9. Sharipov Sh.S. va b. Texnologiya. 6-s. Darslik. T.: Sharq, 2020. – 240 b. 10. Sharipov Sh.S. va b. Texnologiya. 7-s. Darslik. T.: Sharq, 2024. – 240 b. 11. Davlatov K. va b. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi: O'quv qo'llanma T.:O'qituvchi, 1992. – 319 b. 12. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'lim-tarbiyasidan amaliy

	mashg'ulotlar: Qo'llanma. T.: O'qituvchi, 1995. – 250 b. 13. Texnologiya fanidan taqvim-mavzuli reja. 1-9-s. T., RTM, 2024. Qo'shimcha adabiyotlar: 1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. //Mamlakatimizni 2016-yilgi asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy rivojlantirish dasturning eng muhim ijtimoiy-ustuvor o'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b. 2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. //O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagiitangan Oliy Majlis alatalarining ko'shma majlisidagi nutqi. T.: O'zbekiston, 2016. 3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b. 4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni. //-T.: 2020. 5. Antonov A.F. O'quvchilarning mehnat ta'limini boshqarish. T., 1993. 6. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. T.: O'qituvchi, 1990. – 232 b. 7. Ishmuxamyedov R.J. va b. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T.: Iste'dod, 2008. – 180 b. 8. Karimov I. O'qituvchi, ustoz, murabbiy ... T., 2009. 9. Karimov I. Mehnat ta'limi darslarida interfaol metodlardan foydalanish. T., 2009. 10. Karimov I. va b. 5-sinfda gazlamalarga ishlov berish mashg'ulotlarini tashkil etish. Qarshi: Nasaf. 2010. 11. Karimov I. va b. 6-sinfda servis xizmati darslarini tashkil etish. T., 2013. 12. Karimov I. va b. 7-sinfda servis xizmati darslarini tashkil etish. T., 2013. 13. Karimov I. va b. Mehnat ta'limi darslarini tashkil etish: 8-sinf. T., 2012. 14. Karimov I. va b. Mehnat ta'limi darslarini tashkil etish: 9-sinf. T., 2012. 15. Karimov I. va b. 5-7-sinflarda metallarga ishlov berish texnologiyasi darslarini tashkil etish. T., 2013. 16. Karimov I., Shomirzayev M. Texnologiya fanini o'qitishda innovasion pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma. T.: Universitet, 2020. – 190 b. 17. Mahkamov S. O'quv ustaxonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar. T., 1991. 18. Ramizov J. O'quv ustaxonalarida amaliy mashg'ulotlar. T., 1990. 19. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. T., 2006. 20. "Xalq ta'limi", "Uzluksiz ta'lim", "Ta'lim taraqqiyoti", "Maktab va hayot" jurnallari; "Ma'rifat" gazetasi ayrim sonlari (2020-2025-yillar). Elektron ta'lim resurslari 1. www.zivonet.uz 2. www.pedagog.uz 3. http://www.ziyonet.uz 4. http://www.tdpu.uz/ 5. https://welcome.kaznu.kz/ru/education_programs/bachelor/speciality/1396#general
7	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8	Fan/modul uchun mas'ul va dastur muallifi: I.Karimov – Qo'qon davlat universiteti Texnologik ta'lim va kutubxonashunoslik kafedrası professori, p.f.n.
9.	Taqrizchilar: J.Tursunov - Qo'qon davlat universiteti Texnologik ta'lim va kutubxonashunoslik kafedrası katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD) (ichki).

	G.Hojikarimova - Farg'ona davlat universiteti Texnologik ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD), (tashqi)
--	--